

# ARAB TILIGA OID ZAMONNI IFODALOVCHI SO‘ZLAR TALQINI

**Karimova Munira Bahodir qizi**

Toshkent davlatsharqshunoslik universiteti

Mustaqil izlanuvchi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22724653>

Qabul qilindi: 4-sentabr 2026-yil • Ma’qullandi: 11-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 12-sentabr 2026-yil

Badiiy asarning lisoniy tahlilida asarga taalluqli har bir unsumni tahlil qilish muhim sanaladi. Bu omillar sirasida zamon birligi alohida e’tiborga molikdir. Chunki aynan shu tamoyil tahlili asosida asarni yanada teranroq anglash, u yozilgan davr til xususiyatlarini ichdan tadqiq etish imkoni tug’iladi.

Badiiy asar matnida zamonni bildiruvchi birliklar mazmunni yaxlitlashga, jarayon yuz bergan vaziyat haqida atroflicha tasavvurga ega bo’lishga yordam beradi. “Vaqt ma’noli leksemalar matn qismlarini distant (masofasiz, bilvosita) va kontakt (masofali, bevosita) bog’lash uchun xizmat qiladi. Ayrim temporal so’zlar leksik-grammatik bog’lovchi vazifasini bajarib, matndagi xronologik ketma-ketlik, izchillikni aks ettirib turadi”<sup>1</sup>.

Umuman olganda, dunyodagi mavjud tillar leksik qatlamida ma’lum bir zamonni va makonni ifoda etuvchi lug’aviy birliklar bo’lishi tabiiy. Zero inson yashash jarayonida vaqtning va joyning aniqlashtirishga o’z-o’zidan ehtiyoj tuyadi. Bu ehtiyojni tilda ifodalash uchun esa makon va zamonni bildiruvchi birliklar kerak bo’ladi.

Tilda vaqtning o’zida mujassam etuvchi mustaqil birliklar mavjud bo’lib, ular o’zbek tilida mustaqil so’z turkumlari orqali ifodalanadi. Masalan, ot so’z turkumi orqali: *oy, yil, kun, tun, kuz, qish*; ravish orqali: *kecha, bugun, ertalab, kechqurun*; sifat orqali: *bahorgi, yozgi, tonggi, tungi*; fe’l orqali: *tamomlamoq, imillamoq, tunamoq, qarimoq* kabi.

Arab tilshunosligida الظروف - “zarflar” kategoriyasi mavjud bo’lib, bu nahviy termin sifatida quyidagi ma’noni o’zida mujassam etadi: “Zarflar – ish-harakati yoki holatning qaysi vaqtda yoki joyda ro’y berganini ko’rsatuvchi birliklar sanaladi”<sup>2</sup>.

Shuningdek, zarflar makon va zamon zarflari ko’rinishida ikki guruhga ajraladi. Ish harakati yoki holatining yuz bergan vaqtini bildiruvchi zarflar ظرف الزمان deyiladi. Arab tilidagi zarflar yuz bergan bir nechta ish harakat yoki holatlar o’rtasida xronologik bog’liqlikni aniqlashda yordam beradi. Zamaxshariy “Al-Mufasssal” asarida zamon zarflarining sintaktik vazifalari va o’zida mujassam etgan ma’no qirralarini atroflicha tahlilga tortadi.

Arab tilida zamonni o’zida mujassam etuvchi morfologik va sintaktik birliklar ma’lum bir chegara bilan belgilanadi. Matn tarkibida zamonga ishora qiluvchi asosiy omil sifatida arab tilshunosligida fe’l so’z turkumiga oid so’zlar ko’rsatiladi. Shu nuqtayi nazardan olib qaraganda arab tilida ismi-foil, ismi-ma’ul va masdarlarning morfologik zamon ifoda etish xususiyati mavjud emas. Biroq kontekst talabiga ko’ra ismi-foil, ismi-ma’ul va masdarlar ham zamonni bildiruvchi birlikka aylanishi mumkinligini ayrim arab tilshunoslari ta’kidlaydilar<sup>3</sup>.

Abu Mansur as-Sa’olibiy o’zining “Fiqhul lug’a” asarida vaqtga doir birliklarga to’xtaladi<sup>4</sup>. Bunda bir kunni yigirma to’rt soatga bo’linishi va arab tilida sutkaning har bir bo’lagiga nisbatan alohida nom qo’llanilishini ta’kidlaydi.

Kunduzgi vaqtlar: (am.ing)

<sup>1</sup> Mamaziyayev O. Poetik nutqda gradatsiya. – Toshkent: Fan, 2017. – B. 13.

<sup>2</sup> Aktas O. Arapcada durum zarflari. – Istanbul: Mecmua, 2022. – S. 48.

<sup>3</sup> Yildirim T. Arap dilinde fiil, zaman, gorunum. – Ankara: Ilahiyat, 2025. – S. 10.

<sup>4</sup> أبو منصور الثعالبي. فتح اللغة. – القاهرة, 2001. – ص. 37.

|        |       |        |        |         |
|--------|-------|--------|--------|---------|
| الهجرة | الضحى | الغدوة | البكور | الشروق  |
| الاصيل | القصر | العصر  | الرواح | الظهيرة |
|        |       |        | الغروب | العشي   |

## Kechki vaqtlar (pm.ing):

|       |        |        |        |       |
|-------|--------|--------|--------|-------|
| الفحة | السدفة | العنمة | الغسق  | الشفق |
| الفجر | السحر  | اليهرة | الزلفة | الزلة |
|       |        |        | الصباح | الصبح |

Badiiy matnning lisoniy tahlilida vaqtga doir birliklarni aniqlash, ularni asl kelib chiqish negizini tadqiq etish orqali asarning “xronik skeleti”ni shakllantirish mumkin. Matn butun bir inson tanasiga qiyos qilinsa, aynan vaqtga, zamonga oid tushunchalar shu tanani ushlab turgan suyaklarga oʻxshaydi. Bu birliklar ichidagi oʻz va oʻzlashgan komponentlarni ajratish, xususan, arab tiliga oid soʻzlarni tahlil qilish muhimdir.

Turkiy tilda yozilgan asarlar tarkibida vaqtni bildiruvchi arabiy soʻzlarni oʻrganish orqali quyidagi xulosaga kelish mumkin:

- Arabiy soʻzlar muallifga ayni zamon muhitini koʻrsatishga va badiiy tasvirni boyitishga xizmat qilagan;
- Ayrim arabiy soʻzlar turkiy tilidagiga nisbatan badiiy boʻyoqdorroq boʻlgani eʼtiboridan asarning ekspressivligini oshirishga yordam bergan.

**Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. Mamaziyayev O. Poetik nutqda gradatsiya. – Toshkent: Fan, 2017.
2. Aktas O. Arapcada durum zarflari. – Istanbul: Mecmua, 2022.
3. Yildirim T. Arap dilinde fiil, zaman, gorunum. – Ankara: Ilahiyat, 2025.
4. أبو منصور الثعالبي. فصح اللغة. – القاهرة, 2001.